



**NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**NAVOIY
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

**2021- YIL YANVAR-DEKABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)**



Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 73 631,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,9 % ni tashkil etdi.




B

Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash




C

Ishlab chiqaradigan
sanoat



D



Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash



E

Suv bilan ta'minlash;
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'lishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 38,2 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 3,7 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 8,8 % ga o'lishiga xizmat qildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda - 84,6 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 281,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,6 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar - dekabr

FHI,% da



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 60 323,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,9 % ini tashkil etdi.


2020- yil
yanvar-dekabr

84,6
%

2021- yil
yanvar-dekabr

81,9
%

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,7 % (5,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 83,5 % (87,8 %) va quyi texnologiyalisi – 7,5 % (6,9 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,7 % (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 86,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 74,8 % (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 95,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 4,1 % (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 118,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,3 % (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 109,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 7,5 % (2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 126,1 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Natriy gidroksidi (kaustik soda)




Suvsiz ammiak




Sement



Azot



Tvorog va tvorogdan mahsulotlar



Yumshoq bug'doy va spelta uni




2021- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 15,0 ming m³ azot (2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 120,9 % ga o'sgan), 3 666,0 ming tonna portlandsement (101,4 %), 694,0 ming tonna suvsiz ammiak (208,9 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, ming tonna.	3 615,5	3 666,0	101,4
Azot, ming m ³	12,4	15,0	120,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	66 806	63 130	94,5
Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming tonna	84,0	81,3	96,9
Kislorod, ming m ³ .	201,8	175,0	86,7
Suvsiz ammiak, ming tonna	332,2	694,0	208,9
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	443,5	482,0	108,7
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna	85,9	55,0	64,0

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 80,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 8,2 % ga oshgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 74,8 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 95,6 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 45 143,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 138,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 17 (m.) ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 2 918,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 119,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 10,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 949,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 117,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 31,4 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 510,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati



2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 77,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 %, fizik hajm indeksi 106,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 900,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 107,5 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,5 % ni, fizik hajm indeksi 174,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4 496,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 952,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,4 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 108,8 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-dekabr	2021-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	11 737,8	11 076,8	-661,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	3 801,0	4 520,6	719,6

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 73,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	57 154,0	64 859,4	7 705,4
Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	204,4	81,4	-123,0
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	50 139,0	46 575,6	-3 563,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 113,5 % ni va xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar - 39,8 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 338,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 105,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 5,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2020- yil
yanvar-dekabr

40,4%

2021- yil
yanvar-dekabr

41,8%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2020- yil
yanvar-dekabr

59,6%

2021- yil
yanvar-dekabr

58,2%



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2020- yil yanvar-dekabr oylarida 0,3 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 27,7 % ni, Karmana tumani 19,5 % ni, Xatirchi tumani 13,0 % ni, Qiziltepa tumani 12,0 % ni hamda Navbahor tumani 8,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (105,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Zarafshon shahrida (119,2 %) hamda Karmana tumanida (109,0 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 27,7 % shuningdek, Karmana 19,5 %, Xatirchi 13,0 % ni, Qiziltepa tumanlarida 12,0 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 33,8 % shuningdek, Karmana 22,3 %, Xatirchi 9,3 % ni, Nurota tumanlarida 8,5 % ni tashkil etdi.

1 951,9 mlrd. so'm


2019- yil yanvar-dekabr

2 329,9 mlrd. so'm

2020- yil yanvar-dekabr

2 525,6 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-dekabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

01

2019- yil

101,2 %

02

2020- yil

99,3 %

04

2021- yil

103,4 %

Navoiy sh.

100,7

853,7

Zarafshon sh.

125,7

147,3

Karmana t.

99,8

563,6

Konimex t.

99,3

52,1

Qiziltepa t.

95,9

196,4

Navbahor t.

114,0

200,6

Nurota t.

109,0

214,7

Tomdi t.

105,8

19,0

Uchquduq t.

113,0

44,2

Xatirchi t.

103,8


234,0

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 19,1 % ni, shuningdek, Xatirchi tumani 18,2 % ni, Qiziltepa tumani esa 17,9 % ni tashkil etdi.




o'sish sur'ati
mlrd. so'm


1 291,5 mlrd. so'm
2019- yil yanvar-dekabr

1 566,6 mlrd. so'm
2020- yil yanvar-dekabr

1 813,2 mlrd. so'm
2021- yil yanvar-dekabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 84,8 % ni, shuningdek, Karmana tumani 10,0 % ni, Xatirchi tumani esa 1,8 % ni tashkil etdi.

Navoiy vloyati

2019- yil

44 438,1 mlrd. so'm

2020- yil

65 084,9 mlrd. so'm

2021- yil

73 631,1 mlrd. so'm



2019- yil


104,3 %

2020- yil

109,1 %

2021- yil

107,0 %




FHI, % da

mlrd. so'm


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (419 380,8 ming so'm), Karmana tumani (56 716,9 ming so'm), Xatirchi tumani (6 477,4 ming so'm), Navbahor (6 421,0 ming so'm) tumanida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



o'sish sur'ati
ming. so'm



Navoiy viloyati



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi Navoiy shahrida - 8 063,0 ming so'mni, Karmana tumani – 6 497,4 ming so'mni, Zarafshon shahrida - 3 676,5 ming so'mni, Qiziltepa tumani - 3 360,8 ming so'mni va Navbahor tumani - 3 051,7 ming so'mni tashkil etdi.

Navoiy viloyati



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 051,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,9 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi tumanida (100,0 %), Konimex tumanida (100,0 %), Zarafshon shahrida (99,1 %), Nurota tumanida (94,6 %), Qiziltepa tumanida (82,5 %) tashkil etdi.



Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki Navoiy shahrida (2,0 %), Karmana (16,7 %), Xatirchi (45,0 %), Navbahor (49,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Navoiy vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 3 641 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 766 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,0 %) Navoiy shahriga, 599 tasi (16,5 %) Karmana tumaniga, 475 tasi (13,0 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Jami faoliyat yuritayotgan

2019-yil

2 833 dona

2020- yil

3 273 dona

2021- yil

3 641 dona



Jami yangi tashkil etilgan

2019- yil

1 414 dona

2020- yil

885 dona

2021- yil

1 082 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 200 ta loyiha bo'yicha 2 290,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 21,1 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 741 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni (2,5 bar) ga ko'paygan.

